

## О'QUVCHILARNING О'QISH SAVODXONLIGI (READING)NI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

**Ilmiy rahbar: Egamberdiyeva Iroda**

**ADCHTI dotsenti**

**Abdurashidova Rayyona**

**Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi**

**va tarjimashunoslik**

**fakulteti 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilidagi o'qish savodxonligi (reading) nima? U nima uchun kerak va hozirgi kunda uning ahamiyati qanday ekanligi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. O'qish ko'nikmalari o'quvchilarni fikrlash doirasini kengaytirishga, insonlar bilan oson muloqotga kirishga, shuningdek, o'z fikrini keng va ochiq nomoyon etishga ko'maklashadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish (reading), tushinish (comprehention), grammatika (grammar), lug'at bilan ishlash ( vocabulary).

### **Kirish**

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda chet tillariga bo'lgan talab nihoyatda katta. Xorijiy tillarni o'rganishda o'qish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki o'qish nafaqat til o'rganish vositasi, balki insonning dunyoqarashini kengaytirib, olamga boshqacha ko'z bilan qarashga, har narsadan o'rnak olib, uni tahlil qilishga undaydi. Xalqara tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, muntazam o'qish bilan shug'ullangan o'quvchilar so'z yodlash qobiliyati, matni tushinish va tahlil qilish ko'nikmalari boshqa bolalarga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

**O'qish**-matni ovoz chiqarib yoki ovoz chiqarmay o'qib chiqish orqali qabul qilingan axborotni tahlil qilishdir. U to'rt qismga bo'linadi:

1. Skimming (umumiy mazmuni tez tushinib olish)
2. Scanning (kerakli ma'lumotni qidirib topish)
3. Intensive reading (qisqa matni chuqur tahlil qilish)

4. Extensive reading (ko'proq matn o'qish orqali umumiy bilimni kengaytirish)

Ularni tahlil qilib chiqadigan bo'lsak;

Skimming - matnni tezlik bilan o'qib, uning asosiy g'oyasini tushinishga harakat qilishdir. Bu orqali vaqtni tejab, matnning umumiy yo'nalishi bilib olinadi.

Scanning - matndagi fakt, ism, raqam, sana yoki yil kabi muhim ma'lumotlarni topish ya'ni matnni to'liq o'qimasdan ham kerakli bo'lgan bilimlarga ega bo'lishdir.

Intensive reading – ko'plab ma'lumotlarni o'qish, tushinish, tahlil qilish hamda lug'at boyligini oshirishdir. Bu usul keng fikrlashga va turli mavzularga aloqador yangiliklarni o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Extensive reading – muntazam biror narsani o'qish orqali umumiy bilimni kengaytirishdir. O'quvchi bu usulda asosan badiiy kitoblar, hikoyalar, romanlar va maqolalar o'qiydi.

### **O'qish strategiyasi.**

O'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirish uchun o'qish strategiyasi muhim hisoblanadi. Eng avvalo o'quvchi o'rganayotgan tilidagi darajasidan kelib chiqqan holda kitob, gazeta va shunga o'xshash nashriyotlardan foydalanishi kerak. O'qish jarayonida matn qanday uslubdaligini bilish, uni tushinish va eng asosiysi yangi so'zlarni yod olish muhim omillardan biri sanaladi. Bunday strategiyadan foydalanish o'qish savodxonligi (reading)ni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliyotda o'quvchilarni faollashtirish uchun turli xil metodlardan foydalanish muhimdir. Ulardan biri esa fikr almashish ko'nikmalaridir. O'quvchilarga darsni boshlashdan oldin bir matn beriladi keyin esa, ushbu matnga aloqador savollar berilib, guruhda muhokama qilinadi va matnning umumiy mazmuni oydinlashtiriladi. Shuningdek, har kuni ularga qo'shimcha tarzda istalgan mavzuda maqolalar o'qib, boshqalar bilan fikr almashishadi. Bu usul orqali esa o'quvchilar bilmagan ma'lumotlar boshqalardan eshitish orqali ko'proq bilimlarga ega bo'ladilar.

Xalqaro tadqiqotlar natijasi ham o'qish savodxonligi hayotimizda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamoqda. Xususan, 2022-yilda bo'lib o'tgan PISA

(Programme for International Student Assessment) natijalariga ko'ra, ko'plab davlatlarda o'quvchilarning qariyb 27 foizi murakkab matnlarni tushunishga qiynalgan. Bu esa o'qish malakasi (reading) ni rivojlantirish bo'yicha yangi metodik usullarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

### **Xulosa.**

O'qish savodxonligini rivojlantirish bugungi ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam va maqsadli tashkil etilgan o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi, matnni chuqur tushinish qobiliyatini shakllantiradi hamda matnga tanqidiy yondashishga o'rgatadi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Grabe W. & Stoller F. (2013). O'qish nazariyasi va amaliyoti. (ingliz tilidan tarjima)
2. Karimova M. O'qish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalanish. Til va adabiyot ta'lim jurnali 45-49-betlar
3. OECD. (2023). PISA 2022 natijalari: o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Chet tillar ta'limi konsepsiyasi.